

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH, STANDARTLASHTIRISH,
SERTIFIKATLASHTIRISH VA METROLOGIYA TIZIMLARINI YANADA
RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya milliy tizimini yanada rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash, sog‘liqni saqlash va iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 11-sentabrdagi PQ-3939-son [qaroriga](#) muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va “O‘zstandart” agentligining (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) 2019-yil 1-yanvardan quyidagilarni nazarda tutuvchi tartibni o‘rnatish takliflari ma‘qullansin:

Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish tashkiloti (ILAC) va Xalqaro akkreditatsiya qilish forumi (IAF) to‘laqonli a‘zolari hisoblangan davlatlarning sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari yoki sinov bayonnomalari taqdim etilganda, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ko‘p miqdorda bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlari (erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari bundan mustasno) o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiradigan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan ixtisoslashgan va qishloq xo‘jaligi texnikasi, texnologik uskunalar va ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, shuningdek, majburiy sertifikatlanishi lozim bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan nooziq-ovqat xomashyo, materiallar va buyumlar majburiy sertifikatlashtirishdan ozod qilinadi;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan o‘lchash vositalariga muvofiqlik sertifikatini taqdim etmagan holda, uni bojxona hujjatlari rasmiylashtirilgan kundan boshlab ikki oy davomida o‘rnatilgan tartibda olish sharti bilan bojxona hujjatlarini rasmiylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(1-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi PF-140-sonli [Farmoniga](#) asosan 2024-yil 1-yanvardan chiqariladi — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.08.2023-y., 06/23/140/0618-son)

2. Belgilab qo‘yilsinki:

mazkur qarorning [1-bandida](#) ko‘rsatilgan soddalashtirilgan tartibda olib kiriladigan tovarlarning texnik jihatdan tartibga solish

sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ta'minlash, shuningdek, ularning maqsadli ishlatilishiga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan tadbirkorlik subyektlarining mansabdor shaxslari mas'ul hisoblanadi;

mazkur qarorning **1-bandida** ko'zda tutilgan soddalashtirilgan tartib, davlat bojxona xizmati organlariga (shu jumladan uchinchi shaxslar tomonidan) tovarlar ularni ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kirayotgan tadbirkorlik subyekti tomonidan ularni ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun maqsadli ishlatilishi to'g'risidagi majburiyatlari, shuningdek, o'rnatilgan tartibda bojxona hujjatlari rasmiylashtirilgan kundan boshlab ikki oy davomida o'lchash vositalarini sertifikatlashtirish amalga oshirilishi ko'zda tutilgan kafolat xati taqdim etilishi sharti bilan qo'llanadi;

davlat bojxona xizmati organlari, bojxona hujjatlari rasmiylashtirilgandan so'ng uch kun muddatda mazkur qarorning **1-bandiga** muvofiq soddalashtirilgan tartibda olib kirilgan tovarlar importi to'g'risida idoralararo axborot almashinuvi vositasi orqali O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga va Agentlikka ma'lumot taqdim etadi;

mazkur qarorning **1-bandida** nazarda tutilgan soddalashtirilgan tartibda olib kiriladigan tovarlardan maqsadli foydalanish ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi PF-140-sonli Farmoniga asosan 2024-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotadi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.08.2023-y., 06/23/140/0618-son)

4. Quyidagilar:

2019-2020-yillarda texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" **1-ilovaga** muvofiq;

29 ta umumiy va 13 ta maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini ko'zda tutadigan 2019 — 2021-yillarda texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi **2-ilovaga** muvofiq;

uyg'unlashuv darajasini 47 foizga yetkazishni nazarda tutuvchi 2019 — 2021-yillarda standartlashtirish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish maqsadli ko'rsatkichlari **3-ilovaga** muvofiq;

sinov va o'lchash bazasini takomillashtirish bo'yicha loyihalar ro'yxati **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Quyidagilarga shaxsiy javobgarlik yuklansin:

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripovga — "Yo'l xaritasida" ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va to'liq

amalga oshirilishini ta'minlash ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi uchun;

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari N.S. Otajonovga — Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturining o'z vaqtida, to'liq va samarali amalga oshirilishi uchun;

Agentlik bosh direktori D.N. Sattarovga — standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarning uyg'unlashuv darajasini belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga, shu jumladan 2023-yilgacha 80 foizga yetkazish, Agentlik tizimi tashkilotlarining samarali ishlashi, respublikaning barcha hududlarida sinov laboratoriyalarining keng tarmog'ini, shu jumladan xususiy sinov laboratoriyalari mavjud bo'lmagan joylarda davlat-xususiy sheriklik asosida yaratish va modernizatsiya qilishni ta'minlash uchun;

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining raisi M.B. Azimovga — chegara bojxona postlarida nazorat tartibotlarini bajarishda sanitariya-epidemiologiya, fitosanitariya va veterinariya nazorati organlari faoliyatining samarali va operativ muvofiqlashtirilishini ta'minlash uchun.

6. Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari — mazkur qarorning [2-ilovasida](#) ko'rsatilgan texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar bir hafta muddatda ekspert kengashlarini shakllantirsin va texnik reglamentlar ishlab chiqish bo'yicha tarmoq jadvallarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

7. Belgilab qo'yilsinki, 2019-yil 1-yanvardan:

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(7-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-sonli [qaroriga](#) asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 07/21/5133/0515-son)

muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtirishda takrorlanuvchi sinovlar o'tkazilishi taqiqlanadi va sertifikatlarni berishda, idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan laboratoriyalar tomonidan o'tkazilgan sinovlarning ijobiy natijalari asos qilib olinadi.

Agentlik va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazi ikki oy muddatda sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishning samarali mexanizmini tashkil etish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tomonidan tasdiqlanadigan hamda muntazam yangilanadigan sanitariya-epidemiologiya va fitosanitariya vaziyati nomaqbul bo'lgan davlatlarning ro'yxatiga kiruvchi mamlakatlardan sanitariya-

epidemiologiya va fitosanitariya nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan mahsulotlarning olib kirilishi taqiqlansin.

9. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya nazorati chegara xizmatlarining faoliyatini tanqidiy o'rganish natijalari bo'yicha ular tomonidan nazorat funksiyalarining bajarilishini takomillashtirish, samaradorligi va tezkorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritsin.

10. O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi [Qonuniga](#) muvofiq texnik reglamentlarga rioya etish barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiylik ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Texnik reglamentlar amalga kiritilishi bilan, mazkur texnik reglamentlar bilan xavfsizligiga majburiy talablar qo'yiladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirish majburiy tusga ega bo'lishi belgilansin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar standartlashtirish va metrologiya boshqarmalarini tugatgan holda, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti (keyingi o'rinlarda — Departament) tashkil etilsin va unga quyidagi asosiy vazifalar yuklansin:

(11-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-sonli [qarori](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 07/21/5133/0515-son)

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun buzilishlarini oldini olish va profilaktika qilishni amalga oshirish;

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya masalalarida tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama yordam ko'rsatish;

texnik reglamentlar, standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishi, o'lchov birliklari yagonaligi va ishonchligini ta'minlash, majburiy sertifikatlashtirish qoidalari talablari bajarilishi ustidan davlat nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish.

Belgilansinki, Departament yuridik shaxs hisoblanadi, uning faoliyati ustidan umumiy rahbarlik va nazorat Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

12. Agentlikning Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti va "Axborot-ma'lumot markazi" davlat korxonasi negizida O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar institutini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

(12-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 07/21/5133/0515-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston standartlar instituti standartlashtirish bo'yicha tarmoq texnik qo'mitalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni, shu jumladan shartnoma asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqa tashkilotlarning arizalari bo'yicha ishlab chiqish va realizatsiya qilish, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha bazaviy tashkilot etib belgilansin.

(12-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 07/21/5133/0515-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston standartlar institutining ishchilariga O'zbekiston Respublikasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari bo'yicha ishchilar uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlari qo'llanilsin.

(12-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 07/21/5133/0515-son)

Agentlik bir oy muddatda Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi hukumat qarori loyihasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

13. Quyidagilar:

Oldingi tahrirga qarang.

(13-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 07/21/5133/0515-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(13-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 07/21/5133/0515-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti tuzilmasi [8-ilovaga](#) muvofiq;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamentining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bo'limlari davlat inspektorlarining cheklangan soni [9-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan Agentlik boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 153 nafar, shu jumladan markaziy apparati — 66 nafar etib belgilansin.

(13-bandning ikkinchi — to'rtinchi xatboshilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 07/21/5133/0515-son)

14. Agentlik Bosh direktoriga quyidagi huquqlar berilsin:

zarurat bo'lganda, boshqaruv xodimlarining belgilangan shtat soni doirasida Agentlik apparati va uning quyi tashkilotlari tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish;

moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqib, o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, quyi tashkilotlar boshqaruv xodimlarining cheklangan sonini belgilash;

Oldingi tahrirga qarang.

vazirliklar, idoralar va xo'jalik yurituvchi subyektlar texnik qo'mitalarining mutaxassislarini, ilg'or loyiha institutlari, ilmiy va ta'lim muassasalarining mutaxassislarini jalb etish, shuningdek, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish hamda ularga ish haqini milliy valyutada yoki xorijdagi hisobvaraqlariga o'tkazgan holda chet el valyutasida to'lash.

(14-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyuldagi PF-6021-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.07.2020-y., 06/20/6021/1047-son — 2020-yil 1-avgustdan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

Agentlik va Departamentning yuqori malakali, tashabbuskor xodimlariga O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rivojlantirish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lash fondining ikki baravari miqdorigacha qo'shimcha haq to'lash, mukofotlash va boshqa rag'batlantirish tusidagi hamda kompensatsiya to'lovlarni amalga oshirish;

Departament xodimlariga qo'shimcha haq, mukofot va boshqa rag'batlantirish tusidagi hamda kompensatsiya to'lovlarni to'lash

uchun O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rivojlantirish maxsus jamg'armasiga kelib tushayotgan mablag'larning 20 foizigacha miqdorini Departamentning budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazish;

(14-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PQ-5133-sonli qaroriga asosan beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 07/21/5133/0515-son)

Agentlikka sifatsiz hamda odamlar hayoti, salomatligi, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan mahsulotlarni olib kirish, ishlab chiqarish va sotish xavfi monitoringini yuritish vazifasi yuklansin.

15. Quyidagilar Agentlik faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari etib belgilansin:

Agentlik bo'linmalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini qoniqarli baholovchi arizachilar, shuningdek, ularning xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar soni;

interaktiv shaklda xizmatlar ko'rsatish uchun kelib tushayotgan murojaatlar soni;

qabul qilingan va qayta ko'rib chiqilgan texnik reglamentlar va standartlar soni, shu jumladan xalqaro talablarni inobatga olgan holda;

sifatsiz va xavfli bo'lgan mahsulotlarni olib kirish, ishlab chiqarish va sotish xavfini monitoringi bo'yicha ishlar natijadorligi;

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish va profilaktika qilish bo'yicha ishlar natijadorligi.

16. Agentlik bir oy muddatda quyidagilar bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va amalga oshirsin:

idoraning yangi logotipi va farqlash belgilari yaratilishini ko'zda tutgan holda imidjni yaxshilash;

ko'rsatiladigan xizmatlar darajasini oshirish maqsadida quyi tashkilotlar faoliyatini baholash amaliyotini joriy etish;

samaradorlikni baholash natijalari, shu jumladan korrupsion omillarning oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda axborotlarni tizimli yoritib borish.

17. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Markaziy banki, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa idoralarning statistik axborotlari majburiy jo'natmalar reyestriga kiritilsin.

18. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan birgalikda 2019-yil 1-aprelga qadar texnik jihatdan

tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida qonun buzilishi uchun javobgarlikning kuchaytirilishini ko'zda tutadigan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritin.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi Tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Agentlik va boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019-yil 1-sentabrga qadar xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda sifat milliy infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritin.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 28-apreldagi PQ-2935-son [qaroriga 10-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

21. Agentlik, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritin.

Vazirlik va idoralar o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

22. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o'rinbosarlari B.M. Mavlonov va E.M. G'aniyevlar zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 12-dekabr,
PQ-4059-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi PQ-4059-son [qaroriga](#)

1-ILOVA

2019-2020-yillarda texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish bo'yicha

"YO'L XARITASI"

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
I. Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiyani rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish				

1.	O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi to‘g‘risidagi nizomni yangi tahrirda tasdiqlash.	Vazirlar Mahkamasining qarori	2019 yil 25-yanvargacha	O‘zstandart (<i>Sattarov</i>), Moliya vazirligi (<i>Xaydarov</i>), Iqtisodiyot vazirligi (<i>Xodjayev</i>)
2.	“O‘zstandart” agentligi qoshidagi Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta’minlash departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash.	Vazirlar Mahkamasining qarori	2019 yil 25-yanvargacha	O‘zstandart (<i>Sattarov</i>), Moliya vazirligi (<i>Xaydarov</i>), Iqtisodiyot vazirligi (<i>Xodjayev</i>)
3.	Sifatsiz hamda odamlar hayoti, salomatligi, yuridik va jismoniy shaxslar mulki, atrof-muhit uchun xavfli bo‘lgan mahsulotlarni olib kirish, ishlab	Vazirlar Mahkamasining qarori	2019 yil 1-fevralgacha	O‘zstandart (<i>Sattarov</i>), Adliya vazirligi (<i>Davletov</i>), Savdo-sanoat palatasi (<i>Ikramov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

	chiqarish va sotish xavfi monitoringini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.			
4.	Sanitariya-epidemiologiya va fitosanitariya holati nomaqbul bo'lgan va ulardan sanitariya-epidemiologiya va fitosanitariya nazoratidan o'tkaziladigan mahsulotlarni olib kirish taqiqlangan davlatlar ro'yxatini shakllantirish va yangilash tartibini tasdiqlash.	Vazirlar Mahkamasining qarori	2019 yil 1-aprelgacha	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Shadmanov</i>), Tashqi savdo vazirligi (<i>Xodjayev</i>), Davlat veterinariya qo'mitasi (<i>Norkobilov</i>), O'zdavkarantin (<i>Ergashev</i>), DBQ (<i>Azimov</i>), LBMA (<i>Axmedxadjayev</i>)
5.	Ovqat mahsulotlari va dori vositalarining yaroqlilik muddatlariga nisbatan qo'llaniladigan chegaraviy muddatlarni belgilash (ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan umumiy yaroqlilik	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2019 yil 15-yanvargacha	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Shadmanov</i>), O'zstandart (<i>Sattarov</i>), Davlat veterinariya qo'mitasi (<i>Norkobilov</i>), DBQ (<i>Azimov</i>)

	muddatidan foiz nisbatida) va ushbu muddatlar tugagan hollarda ularni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishiga yo'l qo'ymaslik.			
6.	Ushbu qarorning 1-bandida ko'rsatilgan soddalashtirilgan tartib qo'llanilgan, import qilingan tovarlardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish mexanizmini joriy etish.	Vazirlar Mahkamasining qarori	2019 yil 25-yanvargacha	DSQ (<i>Musayev</i>), DBQ (<i>Azimov</i>), O'zstandart (<i>Sattarov</i>), LBMA (<i>Axmedxadjayev</i>), manfaatdor idoralar
7.	Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun buzilishi uchun javobgarlikni kuchaytirish.	O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi	2019 yil 1-aprelgacha	Vazirlar Mahkamasi (<i>Otajonov</i>), O'zstandart (<i>Sattarov</i>), Bosh prokuratura (<i>Murodov</i>), Adliya vazirligi (<i>Davletov</i>), LBMA (<i>Axmedxadjayev</i>)
8.	Sinov laboratoriyalarini tashkil	Vazirlar Mahkama	2019 yil 1-fevralgacha	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), Moliya vazirligi (<i>Xaydarov</i>)

	etish va ishga tushirish sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risida, shuningdek, laboratoriya sinovlarini tashkillashtirish bo'yicha outsorsing xizmatlarini joriy etish to'g'risida nizomlarni tasdiqlash.	sining qarori		
9.	Davlat bojxona xizmatlari tomonidan chegara bojxona postlarida fitosanitariya, veterinariya, sanitariya-epidemiologiya va ekologik nazorat organlari faoliyatining muvofiqlashtirilishini kuchaytirish.	Vazirlar Mahkama sining qarori	2018 yil 25-dekabr gacha	DBQ (<i>Azimov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Shadmanov</i>), Davlat veterinariya qo'mitasi (<i>Norkobilov</i>), O'zdavkarantin (<i>Ergashev</i>), O'zstandart (<i>Sattarov</i>)
II. Mahsulot muvofiqligini baholash tartibotlarini takomillashtirish uchun sinov bazasini modernizatsiya qilish				
10.	“O'zstandart” agentligining idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlarini modernizatsiya qilish va	Chora-tadbirlar dasturi	2019-2020 yillar	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), Moliya vazirligi (<i>Xaydarov</i>)

<p>yuqori aniqlikdagi zamonaviy o'lchash va sinash uskunalari bilan qayta jihozlash.</p>			
<p>11. "O'zstandart" agentligining idoraviy bo'ysunuvida bo'lgan 9 ta laboratoriyani xalqaro darajada akkreditlash, shu jumladan:</p> <p>"Navoiy SSM" DK (elektrotexnika mahsulotlari), "Farg'ona SSM" DK (ozuq-ovqat mahsulotlari);</p> <p>"Chirchiq SSM" DK, "Xorazm SSM" DK, "Navoiy SSM" DK, "Andijon SSM" DK, "Qashqadaryo SSM" DK, "Buxoro SSM" DK, "Samarqand SSM" DK (ozuq-ovqat mahsulotlari).</p>	<p>Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma</p>	<p>2019 yil 1-sentabrgacha</p> <p>2020 yil 1-dekabrgacha</p>	<p>O'zstandart (<i>Sattarov</i>), LBMA qoshidagi Akkreditatsiya markazi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

12.	To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilgan holda (shu jumladan xususiy sinov laboratoriyalari mavjud bo'lmagan joylarda davlat-xususiy sheriklik asosida), avtotransport vositalari, shu jumladan gaz-ballon uskunalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha laboratoriyalar tarmog'ini yaratish.	Choratadbirlar dasturi	2019-2020 yillar	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), Davlat investitsiya qo'mitasi (<i>Bekenov</i>), IIV (<i>Bobojonov</i>), Sanoatgeokontexnazorat (<i>Gulyamov</i>)
13.	Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sinash laboratoriyasini o'z ichiga olgan taxminiy 8,5mln AQSh dollari qiymatidagi "Kampus" o'quv-sinov majmuasini tashkil etish.	Choratadbirlar dasturi	2019-2020 yillar	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), Davlat investitsiya qo'mitasi (<i>Bekenov</i>), Qishloq xo'jaligi vazirligi (<i>Yusupov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Shadmanov</i>)
14.	Xavfsizlik parametrlari va elektromagnit	Choratadbirlar dasturi	2019-2020 yillar	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), Davlat investitsiya qo'mitasi (<i>Bekenov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Shadmanov</i>),

	moslashuvch anlik bo'yicha texnik (maishiy, tibbiy, elektr va radiotexnika hamda boshqalar) vositalarni to'la baholashni ta'minlaydigan sinov bazasini tashkil etish.			O'zavtosanoat (<i>Umurzakov</i>), O'zeltexsanoat (<i>Abdullayev</i>)
15.	Sanitar-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya nazorati va mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralarini zamonaviy laboratoriya uskunalari bilan jihozlash uchun xalqaro moliya institutlarining grant mablag'lari yoki imtiyozli kreditlarini jalb etish.	Loyihalar pasportlari Grant yoki imtiyozli kredit taqdim etish bo'yicha kelishuv	2019 yil 1-aprelgacha	Davlat investitsiya qo'mitasi (<i>Bekenov</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Shadmanov</i>), Davlat veterinariya qo'mitasi (<i>Norkobilov</i>), O'zdavkarantin (<i>Ergashev</i>), O'zstandart (<i>Sattarov</i>)
III. Milliy standartlarning xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirilishi darajasini yanada oshirish				
16.	Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy	Vazirlar Mahkamasining qarori	2019 yil	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

	standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish va qo'llash tartibini tasdiqlash.		25-yanvargacha	
17.	Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar faoliyatini tashkil qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash va unda ular faoliyatining samaradorligini baholash natijalari bo'yicha mas'ul shaxslarni mukofotlash va mas'uliyati belgilashni ko'zda tutish.	Vazirlar Mahkamasining qarori	2019 yil 15-yanvargacha	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
18.	Standartlashtirish bo'yicha xalqaro, hududiy tashkilotlar qoshidagi Texnik qo'mitalarga (ISO, MEK, MGS va boshqalar) a'zo bo'lish.	Idoraviy hujjatlar	2019-2020 yillar	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari

19.	“Halol” standartlari talablariga muvofiq mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish faoliyatini tashkil etish yuzasidan takliflar kiritish.	Yozma axborotnomama	2019 yil 25-yanvargacha	O‘zstandart (<i>Sattarov</i>), Din ishlari bo‘yicha qo‘mita (<i>Akramov</i>), TSV (<i>Xodjayev</i>)
20.	Sohalar va idoralar kesimida standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlarning xalqaro talablarga uyg‘unlashuvining maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish tarmoq jadvallarini tasdiqlash.	Idoraviy hujjatlar	2019 yil 1-yanvargacha	O‘zstandart (<i>Sattarov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
IV. O‘lchov birliklari yagonaligini ta‘minlash davlat tizimini xalqaro amaliyotga muvofiq holda takomillashtirish				
21.	O‘lchash vositalarini kalibr lash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tishni hisobga olgan holda, qiyoslanishi lozim bo‘lgan o‘lchash vositalarining yangilangan ro‘yxatini tasdiqlash.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	2019 yil 1-martgacha	O‘zstandart (<i>Sattarov</i>), LBMA (<i>Axmedxadjayev</i>), manfaatdor idoralar

22.	O‘zbekiston Respublikasi da o‘lchash vositalarini kalibr lash tizimini rivojlantirish ni asosiy vazifa etib belgilagan xolda, 2023-yilgacha bo‘lgan davrda O‘lchov birliklari yagonaligini ta’minlash milliy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish Konsepsiyasi loyihasini kiritish.	Vazirlar Mahkamasining qarori	2019 yil 1-martgacha	O‘zstandart (<i>Sattarov</i>), LBMA (<i>Axmedxadjayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
23.	Xalqaro tajribani hisobga olgan holda “O‘zbekiston Respublikasi ning “Metrologiya to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini O‘zbekiston Respublikasi	O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi	2019 yil 1-aprelgacha	Vazirlar Mahkamasi, O‘zstandart (<i>Sattarov</i>), Adliya vazirligi (<i>Davletov</i>)

Oliy Majlisi palatalariga ko'rib chiqish uchun kiritish.			
V. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni kengaytirish			
24. Mahsulotlarning sifatiga to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish hamda doimiy tarzda "qayta aloqa" prinsipi bo'yicha o'rganish natijalarini yoritib berish imkoniyatini beradigan maxsus internet-portalni yaratish.	Veb-sayt ishlab chiqish va foydalanishga topshirish	2019 yil 1- fevralgacha	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), Davlat raqobat qo'mitasi (<i>Sharipov</i>), Axborot texnologiyalari vazirligi (<i>Sadikov</i>), SSP (<i>Ikramov</i>), Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi (<i>Sarimsakov</i>)
25. Sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlarning har bir bosqichida murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini kuzatib borish imkoniyatini ko'zda tutgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali	Choratadbirlar kompleksi	2019 yil 1- fevralgacha	O'zstandart (<i>Sattarov</i>), Axborot texnologiyalari vazirligi (<i>Sadikov</i>), LBMA (<i>Axmedxadjayev</i>), Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Shadmanov</i>), Davlat veterinariya qo'mitasi (<i>Norkobilov</i>), O'zdavkarantin (<i>Ergashev</i>), Davlat ekologiya qo'mitasi (<i>Kuchkarov</i>)

	<p>mahsulotlarning sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish mexanizmini joriy etish.</p>			
